

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиутдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	



# IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI

## Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasining mustaqil tadqiqotchi  
E-mail: [yorqinoyxaydarova92@gmail.com](mailto:yorqinoyxaydarova92@gmail.com)  
ORCID: 0009-0002-4750-2983

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiy o'sishga erishishda innovatsion va investitsion siyosatlarining o'rni hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarining nazariy jihatlarini yoritilgan. Muallif tomonidan innovatsion va investitsion siyosatning milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi uyg'unlashtirilgan ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan va ularni takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, innovatsion va investitsion siyosatning asosiy maqsadlari, iqtisodiyot tarmoqlari hamda hududlarga investitsiyalarni jalb etish orqali innovatsiyalarni joriy etish jarayonlari, shuningdek, innovatsion investitsiyalarni ishlab chiqarish omillariga aylantirish tizimining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion siyosat, innovatsion siyosat, iqtisodiy o'sish, innovatsion investitsiyalash, hududiy innovatsion va investitsiya siyosati, yuqori texnologiyali tarmoqlar, raqobatbardoshlik, raqobat muhiti.

**Abstract.** This article examines the role of innovation and investment policies in achieving economic growth, as well as the theoretical aspects of their implementation mechanisms. The author provides a scientific analysis of the integrated impact of innovation and investment policies on the national economy and develops conclusions aimed at their improvement. In addition, the study explores the main objectives of these policies, the processes of introducing innovations through attracting investments into economic sectors and regions, and the specific features of transforming innovative investments into production factors.

**Keywords:** investment policy, innovation policy, economic growth, innovative investment, regional innovation and investment policy, high-tech industries, competitiveness, competitive environment.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль инновационной и инвестиционной политики в обеспечении экономического роста, а также теоретические аспекты механизмов их реализации. Автором проведён научный анализ синергетического воздействия инновационной и инвестиционной политики на национальную экономику и сформулированы соответствующие выводы по их совершенствованию. Кроме того, изучены основные цели инновационной и инвестиционной политики, процессы внедрения инноваций посредством привлечения инвестиций в отрасли экономики и регионы, а также особенности трансформации инновационных инвестиций в факторы производства.

**Ключевые слова:** инвестиционная политика, инновационная политика, экономический рост, инновационное инвестирование, региональная инновационно-инвестиционная политика, высокотехнологичные отрасли, конкурентоспособность, конкурентная среда.

## KIRISH

Global iqtisodiy o'sish 2026-yilda 3,3 foizga, 2027-yilda esa 3,2 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Ushbu tendensiya 2025-yil oktabr oyidagi Jahon iqtisodiy istiqbollari prognozlariga nisbatan biroz yuqori ko'rsatkichni ifodalaydi. Mazkur holat savdo siyosatidagi tarkibiy o'zgarishlar, innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar, mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan fiskal va pul-kredit siyosati orqali milliy iqtisodiyotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, qulay moliyaviy shart-sharoitlar hamda xususiy sektor barqarorligi bilan izohlanadi.



Joriy yilga kelib global inflyatsiya darajasining pasayishi kutilmoqda, biroq AQShda inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichga qaytishi nisbatan sekin sur'atlarda kechmoqda. Asosiy xavflar yangi innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samaradorligini qayta baholash zarurati hamda geosiyosiy keskinlikning ortib borishi bilan bog'liq bo'lib, bu omillar ehtiyotkor va muvozanatli iqtisodiy siyosat yuritishni taqozo etadi [1].

Dunyoda ilmiy-texnik salohiyat jadal sur'atlarda rivojlanib borishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish omillarining intellektuallashuvi ham kuchaymoqda. Innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiy o'sish va bozor raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omiliga aylandi. Bu esa barcha sohalarida innovatsiyalar bo'yicha ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnik yutuqlardan samarali foydalanishni, shuningdek, mavjud iqtisodiy salohiyatning raqobatbardoshligini mustahkamlashni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, bugungi kunda ko'plab davlatlar ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga katta hajmda investitsiyalar yo'naltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko'lamli ilmiy-texnik kooperatsiyasiz hamda yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi" [2].

Hozirgi sharoitda innovatsion g'oyalar va ilm-fan yutuqlari har qanday sohaning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur yondashuv mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida milliy iqtisodiyotni investitsion–innovatsion rivojlanish yo'liga izchil o'tkazish zarurligini asoslaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotni innovatsion va investitsion siyosat orqali rivojlantirish hamda iqtisodiy o'sishga erishish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ma'lumki, "innovatsiya" tushunchasi ilk bor avstriyalik olim Y. Shumpeter tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini asoslab bergan hamda iqtisodiy rivojlanishning beshta asosiy o'zgarish yo'nalishini ajratib ko'rsatgan [3].

Xorijiy iqtisodchi olim B. Santoning fikricha, innovatsiya ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayon bo'lib, g'oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali sifat jihatidan ustun mahsulotlar va texnologiyalarni yaratishga xizmat qiladi. Agar innovatsiya iqtisodiy foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa, uning bozorga joriy etilishi qo'shimcha daromad keltiradi [4].

MDH olimlari A. Barysheva, K. Baldin, R. Golov va I. Perederyaevlarning ta'kidlashicha, innovatsiya inson faoliyatining ayrim elementlari va sohalarini yangilari bilan almashtirish yoki mavjudlarini kengaytirish jarayonlari bilan bog'liq yangilanishlar natijasidir [5]. Xorijlik iqtisodchi G. S. Gamidov esa innovatsion iqtisodiyotni bilim va innovatsiyalarga asoslangan tizim sifatida baholab, unda yangi g'oyalar, texnologiyalar va tizimlarni jamiyatning turli sohalariga faol joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [6].

K. X. Zoidovning fikriga ko'ra, innovatsion iqtisodiyot — bu innovatsiyalar asosida rivojlanadigan, raqobatchilardan ustunlikka erishishni maqsad qilgan hamda davlat siyosatida innovatsiyalarni yaratish va ulardan samarali foydalanish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan iqtisodiy tizimdir [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlar D. G'ozibekov va T. Qoralievlarining ta'rifi ko'ra, investitsiya — daromad (foйда) yoki ijtimoiy samara keltiruvchi hamda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiriladigan barcha turdagi moddiy va intellektual boyliklardir [8]. Shuningdek, O. Astanakulov va X. Asatullaevlarning fikricha, iqtisodiy o'sish qisqa muddatli natijalar bilan emas, balki uzoq muddatli davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi asosida ishlab chiqarish hajmining barqaror ortib borishi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy o'sish, o'z navbatida, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy asos hisoblanadi [9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy o'sishga innovatsion va investitsion siyosatlarning ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, mantiqiy umumlashtirish, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o'rganildi.

Innovatsion va investitsion siyosatning o'zaro bog'liqligi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri nazariy va amaliy jihatdan kompleks baholandi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tegishli takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi rivojlanish bosqichida mamlakatimizda ijtimoiy va madaniy infratuzilmani faol tiklash bosqichidan samarali iqtisodiyotni shakllantirish bosqichiga o'tilmoqda. Bunday sharoitda innovatsion va investitsion faoliyatni moliyalashtirishda ayrim cheklolar mavjudligi, investitsion va innovatsion muhitni yanada takomillashtirish

zarurati, shuningdek, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda yuqori xarajatlar va tavakkalchilik omillari kuzatilmoqda. Shu bois, amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsiyalarga ustuvor ahamiyat berish hamda mazkur siyosatlarni yagona innovatsion–investitsion siyosat doirasida integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash joizki, tartibga solish obyektini aniqlash innovatsion va investitsion sohalarda murakkab nazariy masala bo'lib qolmoqda. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning umumlashtirilgan tizimi sifatida davlatning iqtisodiy tizimi qaralib, unda investitsiya va innovatsiya faoliyati asosiy elementlar sifatida ajratib ko'rsatilishi lozim. Bugungi kunda mamlakatda davlat investitsiya va innovatsiya siyosatini ishlab chiqish va samarali amalga oshirish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiy faoliyatning bozor shakllarini institutsionallashtirish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismlarini izchil takomillashtirishni talab etadi.

Investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiy holatiga, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishiga va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U iqtisodiyotni faollashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy muammolarni hal etish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar majmui sifatida qaraladi [10]. Iqtisodiy adabiyotlarda davlat investitsiya siyosati kapital bozorida iqtisodiyot ehtiyojlariga mos investitsiyalar hajmi va tuzilmasini shakllantirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatlariga mos taklifni yaratish va qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida talqin etiladi [11].

Davlat investitsiya siyosatining asosiy maqsadi investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy tartibga solish tizimida muhim jihat nafaqat normativ-huquqiy bazani shakllantirish, balki uni amaliyotda samarali qo'llashdir. Shu nuqtai nazardan, davlatning amortizatsiya siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu siyosat amortizatsiya ajratmalarini hisoblash va ulardan foydalanish tartibini belgilovchi mexanizm sifatida takror ishlab chiqarish jarayonlarining sur'ati va xususiyatlarini, xususan, asosiy vositalarning yangilanish darajasini tartibga solishga xizmat qiladi [12].

Davlat iqtisodiy siyosati turli mexanizmlar va vositalar orqali amalga oshiriladi. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investitsiya jarayonlari samaradorligini oshirish, investorlarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, soliq va ma'muriy rag'batlantirish choralarini qo'llash muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Davlat qo'llab-quvvatlashi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, investitsiya siyosati investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash, ularning samarali usullarini belgilash va amalga oshirish muddatlarini aniqlashni ham o'z ichiga oladi.

Davlat investitsiya siyosati bilan bir qatorda tarmoq, mintaqaviy va mahalliy darajadagi investitsiya siyosatlari ham mavjud bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liqdir. Biroq davlat investitsiya siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, investitsiya faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi va turli darajalarda uni faollashtirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda innovatsiyalar uchun investitsiya resurslarining muhim qismi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda, bu esa tashkiliy darajadagi investitsiya siyosatining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiya jarayonidagi ayrim muammolar investitsiya siyosati tamoyillarining aniq va izchil tizimi yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq. Mazkur tamoyillar tizimi innovatsion rivojlanishning asosi bo'lib, barcha darajadagi subyektlar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlashi zarur.

Davlat investitsiya siyosatining samaradorligi uning amortizatsiya siyosati, ilmiy-texnika siyosati va xorijiy investorlar bilan ishlash mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, innovatsiya siyosati davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Innovatsion siyosatning asosiy maqsadi yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va bozorlarni kengaytirishdan iborat.

Ayrim ilmiy manbalarda innovatsion siyosat barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, innovatsion mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizim sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, u yaxlit milliy innovatsion tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqa yondashuvlarga ko'ra, innovatsion siyosat sanoat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, innovatsion siyosat resurs bazasini rivojlantirish, bilim va malakali kadrlarni shakllantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi [13].


Yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, innovatsion siyosat innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq elementlar majmuasidan iborat tizimdir. U ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, davlat innovatsion siyosati mamlakat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, innovatsion rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratish va innovatsion jamiyatni shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar natijalari investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish



mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ayniqsa ustuvor innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.


Shu bois, innovatsion va investitsion siyosatni yagona tizim sifatida kompleks va tizimli yondashuv asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlab, maqsadlar, resurslar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni yanada kuchaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Davlat innovatsiya va investitsiya siyosatini ishlab chiqishga tizimli yondashuv (muallif tomonidan asosida tuzilgan)

Davlat tomonidan uyg'un holda olib borilayotgan innovatsion va investitsion siyosatni ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonida mamlakat hududlari bo'yicha investitsion salohiyatning nomutanosib taqsimlanishi va hududlar kesimidagi investitsiya xavflaridagi sezilarli tafovutlar kabi omillarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Innovatsiya va investitsiya jarayonlarining o'zaro uzviy bog'liqligi ularni yagona innovatsion-investitsion davlat siyosati tizimiga uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi. Mazkur yondashuv 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Davlat tomonidan tartibga solish tizimidagi innovatsion va investitsion siyosati

Bizning fikrimizcha, integratsiyalashgan innovatsion va investitsion siyosat davlat organlarining yangi iqtisodiyotning muvozanatli o'sishini ta'minlash, investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb muammolarini hal etish orqali davlat tomonidan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks faoliyat sifatida qaralishi lozim. Ushbu siyosat doirasida korxonalar o'rtasida innovatsion faoliyatning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish, innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb etish va rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, muammoga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida ilmiy va texnologik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Birgalikda olib borilayotgan innovatsion va investitsion siyosat ushbu sohalarni davlat tomonidan samarali tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Makroiqtisodiy darajada mazkur siyosatning asosiy maqsadi innovatsiyalarni keng joriy etish, ilmiy va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, fundamental va amaliy fanlarni rivojlantirish hamda mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Shu bilan birga, davlat



investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida hududlar kesimida investitsion salohiyatning notekis taqsimlanishi hamda investitsiya xavflaridagi tafovutlarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Mahalliy darajada innovatsion va investitsion siyosat hududning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilib, innovatsion texnologiyalar asosida bilimga boy mahsulotlarni joriy etish, hudud manfaatlariga mos ravishda innovatsion va investitsion jarayonlarni tartibga solish hamda investitsiya resurslarini samarali safarbar etishni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, hududiy siyosatni shakllantirishda uning milliy ustuvor yo'nalishlarga muvofiqligini ta'minlash bilan bir qatorda, hududning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, innovatsion va investitsion siyosat hududlarning investitsion va innovatsion salohiyatini oshirish hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz tomonimizdan o'rganilgan manbalarga tayanib, shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion va investitsion siyosatni samarali amalga oshirish iqtisodiy o'sishga erishishning nazariy jihatlarini chuqur va tizimli o'rganishni taqozo etadi. Mazkur nazariy yondashuv iqtisodiy o'sishning ichki manbalarini aniqlash imkonini beradi. Innovatsiyalar va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish orqali milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshirish, texnologik taraqqiyotni jadallashtirish hamda qo'shimcha qiymat yaratish mexanizmlarini ilmiy asoslash mumkin.

Hozirgi globallashuv sharoitida hamda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan turli inqiroziy holatlar fonida innovatsion va investitsion siyosatning nazariy asoslarini chuqur o'rganish iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, hududlarda raqobatbardosh muhitni shakllantirish va barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar moliyaviy resurslarni maqsadli yo'naltirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida innovatsion va investitsion siyosatni yanada takomillashtirish uchun bir qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va xususiy sektor ishtirokini oshirish, hududlar kesimida investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiya xavflarini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalari va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/weo/2026/january/russian/text.pdf> Byul-leten «Перспективы развития мировой экономики». 2026 yil yanvar.
2. Astanakulov O., Asatullaev X. O'zbekistonda investitsiyalarning iqtisodiy o'sish va aholi turmush farovonligiga ta'siri taxlili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 6/2022, noyabrdekabr (№ 00062); Astanakulov O., Asatullayev X. Analysis of investments and directions of investment activation in Uzbekistan. Vol. 8 Issue 6, June 2018, ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>.
3. Багирова, Ю.Т. Социальные инвестиции в здравоохранение: показатели измерения и направления развития: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Багирова Юлия Толиковна. – Волгоград, 2006. – 218 с.; Бахур, А.Б. О возможности применения понятия «пассионарность» для формирования подходов к управлению инновационными процессами / А.Б. Бахур, В.Н. Воронина // Интеграл. – 2012. – № 4. – С. 57–58.; Быковский, В.В. Инновационный ресурс повышения качества производственных систем: монография / В.В. Быковский. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2008. – 39 с.;
4. Баффетт, У. Эссе об инвестициях, корпоративных финансах и управлении компаниями / У. Баффетт; сост., авт. предисл. Л. Каннингем; пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2009. – 272 с.; Астанакүлов О., Асатуллаев Кх., Саидахмедова Н., & Батирова Н. (2021). Тхе энэргй эффисенсей оф тхе национал эсономй ассесмент ин термс оф инвестмент ин греен энэргй. Эсономис Анналс-XXI, 189(5-6(1)), 26-34. DOI: <https://doi.org/10.21003/ea.V189-03>.
5. Тадтаев, Д.М. Формирование адекватной системы сотсиално экономического развития Республики Южная Осетия в условиях глобальной турбулентности национальной экономики / Д.М. Тадтаев, Ю.И. Жевора // Вестник Северо-Кавказского федерального университета. – 2016. – №3(54). – С. 132-134.
6. Осапюк, С.Ф. Формирование и отсенка эффективности научно технических и инновационных программ / С.Ф. Осапюк, С.А. Филин. – М.: Изд-во «Благовест-В», 2018. – 320 с.; Парахина, В.Н. Особенности управления инновационным развитием социально-экономических систем в современных условиях: коллективная монография / В.Н. Парахина и др. – Ставропол, 2011. – 289 с.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)